

## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSIQA SAVODINI SHAKLLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI**

**Hasanova Navbahor Xamraqulovna,**

JDPI katta o‘qituvchi.

**Annotatsiya:** Maqolada ta‘lim muassasalarida musiqa darslarini samarali tashkil etishga oid ko‘rsatmalar berilgan. Shuningdek, bugungi kunda musiqa ta‘limi jarayonida o‘quvchilarda musiqa san‘atiga nisbatan qiziqish va havaslarining ortib borishi va bu san‘atning yoshlar ma‘naviy kamolotidagi ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Musiqa madaniyati, estetik tarbiya, milliy madaniyat, ta‘lim muassasalari, milliy qadriyatlar.

Mamlakat kelajak istiqboli har tomonlama rivojlangan komil insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishiga bog‘liq ekanligi bugungi kunda sir emas. Buni har bir pedagog aniq va ravshan his qilishi zarur.

Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan millati, tili, dini va e‘tiqodidan qatiy nazar har bir fuqaroning yagona vatan baxti uchun doimo masuliyat sezib yashashga chorlash ajdodlarimizning bebaho merosi va an‘analarimizga munosib bo‘lishga erishish, komil insonlarni tarbiyalash milliy istiqlol g‘oyasining bosh maqsadidir.

Bugungi kunda musiqa insonning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi; uning hissiyoti va ruhiyatiga faol ta‘sir ko‘rsatadi. Umumta‘lim maktablarining asosiy vaziyatlaridan nafosat olamiga olib kirish va ma‘naviy tarbiya berish. Bunda o‘qituvchi bolalarni muhim bir musiqa asari bilan tanishtirib uni ifodali "jonli" qilib ijro etib, o‘quvchilar diqqat e‘tiborini jalb etadi, ularning nutqini o‘stirish, fikrlash qobiliyatini, dunyo qarashini kengaytiradi, emotsional his-tuyg‘ularga ham faol ta‘sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o‘zlashtirish emas, balki o‘quvchilar ongini, voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik

madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his-tuyg'ularning shaklan tuzilishi nazarda tutiladi.

Har bir musiqa o'qituvchisi o'z ishiga ijodiy yondoshishi, izlanuvchanlik bilan yondoshishi talab qilinadi. Musiqa darslarida musiqa savodi faolyatini talab darajasida tashkil etish darsining amaliy faolyatlarini jarayonida bu faoliyatga oid bilim va tushunchalarni o'quvchilarga yetkazilishi har jihatdan samarali bo'lishini taminlaydi.

Bizga ma'lumki, musiqa darsidagi har bir faoliyatning o'z ko'zlagan maqsad va oldiga qo'ygan vasifalari mavjud. Chunonchi musiqa tinglash orqali o'quvchilarning musiqani tuzilishi shakli janri asar g'oyasi harakteri kabi eng zarur bilim va tushunchalarni shakillantirib boriladi. O'z navbatida bu bilim va tushunchalar mohiyatdan nazariy bilimlar jumlasiga kiradii. Xor bo'lib qo'shiq kuylashda bolalarning vokal-xor malakalarini egallashlari asosiy maqsad bo'lib bu jarayonda vokal kuylash qoidalari nazariy qoidalar shaklida o'zlashtiriladi. Musiqani ifoda vositalari nota cho'zimi yozilishi pauzalar ladlar templar o'lchovlar reprizalar dinamik tuslar diksiya, soz, ansambillik, pauzalar va hakazolar etiborda tutiladi va ularni qoidalari o'zlashtiriladi. Ko'rinadiki bu faoliyatlar o'zaro mushtarak holda o'quvchilarni musiqa savodxonligi bo'yicha bilim va malakalarni mustahkamlashda o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Bu faoliyatlarni ma'lum darajada musiqa savodi faoliyatining amaliy ko'rinishini va davomi deb aytish mumkin shunga o'quvchilarning umum musiqiy madaniyatini shakllantirishda musiqiy nazariy savodxonlikni ahamiyatini shunday ta'riflash mumkin.

Musiqani tarbiyaviy ta'siriga erishish, o'quvchilarda musiqaga qiziqish uyg'otish, musiqani idrok etish jarayonida musiqiy badiiy obrazlarni yoritib biruvchi ifodaviy vositalarni o'zlashtirishga intilishni kuchaytirish musiqiy ta'lim oldida turgan eng muhim vazifalardandir.

Musiqqa savodiga oid nazariy bilimlar o'quvchilar ma'naviy dunyosini kengaytirishda ham muhim omillardan hisoblanadi. Insonning ma'naviy dunyosi qanchalik keng bo'lsa u jamiyat taraqqiyotiga shunchalik ko'p nafi tegadigan shaxs bo'lib yetishadi.

Darsda belgilangan pedagogik maqsadlar, musiqani idrok etish musiqiy faoliyatlar uzviy yaxlitlikda, ya'ni bog'liqlikda olib, borilganda o'quvchilarda dastlabki musiqiy - nazariy malakalarini shakllantirish jarayoni samarali kechadi; Darsdan kuzatiladigan maqsadlar va amalga oshiriladigan vazifalar quyidagilarni qamrab olmog'i maqsadga muvofiq bo'ladi.

--O'quvchilarning musiqani his qilish, tushunish, idrok etish, qobiliyatlarini rivojlantirish.

--Nazariy savodxonlik malakalarini o'stirish;

--Kuylash (jamoaviy ijrochilik) malakalarini o'stirish:

--Tinglash jarayonida farqlash, taqqoslash, mushohada qilish malakalarini shakllantirish:

--Musiqaga ritmik jo'r bo'lish unga muvofiq harakatlar qilish bilan ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirish:

--Musiqqa nazaryasiga oid bilim va tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsida ijodiy tafakkurni rivojlantirish.

--Musiqaning badiiy g'oyaviy mazmuni orqali o'quvchilarda milliy-musiqiy dunyo qarashni shakllantirish, estetik va axloqiy tarbiyani takomillashtirishga erishish.

Bunday dars o'tish jarayonida diqqat, tafakkur, xotira va emotsional ko'tarinkilik ruhi vujudga keladi. Pedagogika va psixologiya fanlariga oid tadqiqotlarda shu narsa alohida ta'kidlandiki ijodkorlikni shakllantirishning barcha turlariga bu omillar bevosita taalluqlidir. Qolaversa butun ta'lim jarayonini ularsiz tasvirlab bo'lmaydi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida tinmay ishlashi, ya'ni bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib ongini oshirish yo'llarini takomillashtirib borishi lozim. Musiqa darslari olib boriladigan sinf xonasi namunali jihozlangan bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Texnika vositalari metodik ko'rgazmali qurollar pianino cholg'u asbobi va o'zbek xalq cholg'u asboblari bilan jihozlangan bo'lishi dasturdan foydalanib dars reja konspektlarini tuzib, yangi texnologiyalarni qo'llab olib borilishi kerak. Shunday qilib musiqa darslarining barcha faoliyatlarini maqsadi va mazmuni darsni mazmunlarini yoritib, hayot bilan bog'lab darsning hamma qismlarini bir-biri bilan uzviy bog'lab olib borishini talab etiladi. Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarni musiqiy madaniyatini mukammal kamol toptirish, ularni musiqiy savodxonlik malakalarini yanada yuqori saviyada rivojlantirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu vazifalarni amalga oshirishning eng muhim omillaridan biri o'quvchilarni dastlabki musiqiy-nazariy bilimlarini chuqur o'zlashtirishlariga erishishdan iboratdir. O'qituvchi har bir darsning va darsdagi ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarning o'quvchilar tomonidan ko'tarinki ruhda, qiziqish va ishtiyoq bilan qabul qilinishiga erishish zarur. Buning uchun esa musiqa savodxonligi faoliyatini alohida holda va boshqa faoliyatlar negizida qiziqarli tarzda – didaktik o'yinlar yordamida tashkil qilinishiga ustivor ahamiyat berish darkor. Ana shundagina musiqiy ta'limning poydevori qo'yiladigan boshlang'ich sinflarda musiqiy-estetik ta'lim, xususan, uning nazariy asoslari o'rganish jarayoni samarali kechadi.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" – Toshkent, Ma'naviyat, 2008 yil.

2. M.Bo‘ronov. “O‘zbekistonda ma’naviy-marifiy siyosatning tadrijiy rivojlanishi”. Toshkent, Ma’naviyat, 2016 yil.

3. N.Hasanova O‘zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o‘rni. Aktualnyy vyziv sovremennoy nauki IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.

4. Umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi va tarbiyasi Konsepsiyasi. – Toshkent, XTV, 1995 yil.

5.Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Advanced Science and Technology  
Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru - music lessons>

6.Khasanova,Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.”Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal.Vol.2020 :Iss.2. Article 15.

[:https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15](https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15)

7. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg‘or fan va texnologiyalar jurnali* , 29 (08), 3489-34953495.

<Http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558> dan olingan

8.Kholmiraev, O. (2021). YOUTH MATURITY AND MUSIC: YOUTH MATURITY AND

MUSIC.Journal of Preschool Education, 3 (3). retrieved

from<https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2103>